

## TOVAR-MODDIY ZAXIRALARI HISOBI VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH

**Raxmanov Elmurod Ergash o'g'li**  
Bank-moliya akademiyasi magistranti  
Raxmanov660@bfa.uz

### Annotatsiya

**Muammoning qo'yilishi.** Ushbu maqolada tovar-moddiy zaxiralarning hisobi va auditini takomillashtirish mavzusi bo'yicha hozirgi korxonalarni xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan – tovar-moddiy zaxiralarning hisobi va auditini tashkil qilish, yuritish jarayonida xalqaro va milliy standartlar asosida mavjud muammolar ilmiy jihatlari ko'rib chiqilgan.

**Metodologiyani aniqlash.** “Tovar-moddiy zaxiralari hisobi va audit” mavzusi, hisob-kitob va audit sohasidagi muammolarni o'rganishda foydalaniladigan ilmiy fokusga ega bo'lgan bir sohadir. Bu mavzuda ilmiy ishlar amaliyotda ishlovchi, hisob-kitob va audit prinsiplari, usullari, hisob-kitob tizimlari va audit o'rganishda ko'rsatilgan metodologiyalardan foydalaniladi.

Ilmiy ishlar, umumiy ravishda, hisob-kitob va audit sohasidagi yangiliklarni tushuntirish, tahlil qilish, muammolar va muammolar yechishning yangi usullarini takomillashtirish uchun qo'llaniladi. Bu ishlar o'qituvchilar, talabalar, ilmiy tadqiqotchilar va soha mutaxassislarining hisob-kitob va audit sohasidagi bilimlarini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'nggi 10 yilda shu mavzuda bir nechta ilmiy ishlar amalga oshirilgan.

Bundan tashqari, metodologiyalar, hisob-kitob va audit jarayonlari, xizmat ko'rsatish sohalarida muammo va yutuqlar haqida tahlil va tajribalar paydo bo'lgan. Bu ilmiy ishlar, tashqi auditorni va korxonalar tashkilotlarini uning moliyaviy faoliyati va tovar-moddiy zaxiralari hisobi bo'yicha qo'llab-quvvatlash uchun rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

**Asosiy topilmalar.** Keyingi 10 yillikda shu mavzuda bir nechta ilmiy ishlar amalga oshirilganini ko'rishimiz mumkin. Bularga: Toshkent moliya instituti mustaqil izlanuvchisi Artikov Kurbonazar Amanovich “Budjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar nazoratining xususiyatlari” maqolasi; Farg'ona Politexnika Instituti, “Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida, assistenti Qayumov Nozimjon Adxamjon o'g'li, “Buxgalteriya hisobi” mutaxassisligi magistri Qayumov Shohruh Adxamjon o'g'lining “Chakana savdo korxonalarida inventarizatsiya o'tkazish masalalari” maqolasi; Toshkent Moliya instituti Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori Sindarov Sherzod Egamberdievichning “Improving accounting of material values in higher education institutions” maqolasi; Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Buxgalteriya hisobi” kafedrasida assistenti Nurniyozov Feruz Abdurashid o'g'lining “Xalqaro standartlarga utishning bosqichlari” maqolasi; Termiz Davlat Universiteti “Buxgalteriya hisobi” yo'nalishi magistranti Yo'ldoshev

Suxrob Rustam o'g'lining "Korxonalar tovar-moddiy zaxiralar hisobini takomillashtirish" maqolasi hamda Toshkent moliya instituti dotsenti Nurmanov Ulugbek Anorbayevichning "Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovarmoddiy zaxiralar manbalari va ularni shakllantirish amaliyoti" kabi maqolalarini misol qilib olamiz.

**Asosiy xulosa.** "Tovar-moddiy zaxiralarning hisobi va auditini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy ishimizning annotatsiyasi bo'yicha kichik xulosa qiladigan bo'lsak, bugungi kundagi shiddat bilan rivojlanib borayotgan zamonda xo'jalik yurituvchi subyektlarida yuritiladigan barcha buxgalteriya hisobi va hisobotlarini yuritilishini, audit va nazoratini xalqaro standartlarga o'tkazish muammosi turibdi. Shu jumladan Tovar-moddiy zaxiralarini hisobini yuritish ham xalqaro standartlar talabiga javob berishi kerak.

**Kalit so'zlar:** Xo'jalik yurituvchi, korxonalar, tovar-moddiy zaxiralar, buxgalteriya hisobi, xarajatlar, hisobot, audit tekshiruvi, inventarizatsiya o'tkazish, xalqaro standartlar.

#### ABSTRACT:

**Setting the problem.** This article examines the scientific aspects of existing problems in the process of organization and management of inventory accounting and auditing by subjects of current enterprises on the topic of improving inventory accounting and auditing based on international and national standards.

**Defining methodology.** The subject of "Inventory Accounting and Auditing" is an area of academic focus used to study accounting and auditing issues. Scientific works on this topic use the methodologies specified in the study of accounting and auditing principles, methods, accounting systems and auditing.

Scientific works, in general, are used to explain, analyze, and improve new methods of solving problems and problems in the field of accounting and auditing. These works are important in increasing the knowledge of teachers, students, scientific researchers and specialists in the field of accounting and auditing, and several scientific works have been carried out on this topic in the last 10 years.

In addition, analysis and experiences on methodologies, accounting and auditing processes, problems and achievements in service areas have emerged. This scientific work is important in the development of the external auditor and the organization of enterprises in order to support their financial activity and inventory accounting.

**Key findings.** In the next 10 years, we can see several scientific works on this topic. These include: the article "Features of control of financial reports in budget organizations" by independent researcher Artikov Kurbonazar Amanovich of the Tashkent Financial Institute; Fergana Polytechnic Institute, "Accounting and Audit" department, assistant professor Qayumov Nozimjon Adkhamjon son, Master of "Accounting" specialty Qayumov Shahrukh Adkhamjon, article "Issues of inventory transfer in retail enterprises"; The article "Improving accounting of material values in higher education institutions" by Sindarov Sherzod Egamberdievich, vice-rector

for financial and economic affairs of the Tashkent Financial Institute; The article "Stages of achieving international standards" by Nurniyozov Feruz Abdurashid, assistant professor of the "Accounting" department of the Samarkand Institute of Economics and Service; The article "Improving the inventory accounting of enterprises" by Yoldoshev Sukhrob Rustam, a master's student of the "Accounting" department of Termiz State University, and Nurmanov Ulugbek Anorbayevich, associate professor of the Tashkent Financial Institute, "Sources of inventory in economic entities and their we can take as an example such articles as formation practice.

**The main conclusion.** If we make a small conclusion based on the annotation of our scientific work on the topic "Improving the accounting and auditing of inventories", in today's rapidly developing era, all accounting and reporting, auditing and control of business entities should be carried out according to international standards. There is a transfer problem. Including keeping inventory of goods must meet the requirements of international standards.

**Key words:** Business manager, enterprise, inventory, accounting, costs, reporting, audit, inventory, international standards.

**Аннотация:**

**Постановка проблемы.** В данной статье рассматриваются научные аспекты существующих проблем в процессе организации и управления складским учетом и аудитом субъектами действующих предприятий на тему совершенствования складского учета и аудита на основе международных и национальных стандартов.

**Определение методологии.** Предмет «Инвентарный учет и аудит» представляет собой область академического направления, используемую для изучения вопросов бухгалтерского учета и аудита. В научных работах по данной теме используются методики, указанные при изучении принципов бухгалтерского учета и аудита, методов, систем учета и аудита.

Научные работы, в основном, используются для объяснения, анализа и совершенствования новых методов решения задач и проблем в области бухгалтерского учета и аудита. Эти работы имеют важное значение для повышения знаний преподавателей, студентов, научных исследователей и специалистов в области бухгалтерского учета и аудита, и за последние 10 лет по этой теме было выполнено несколько научных работ.

Кроме того, появился анализ и опыт в области методологий, процессов бухгалтерского учета и аудита, проблем и достижений в сферах обслуживания. Данная научная работа важна в развитии внешнего аудитора и организации предприятий в целях поддержки их финансовой деятельности и складского учета.

**Ключевые результаты.** В ближайшие 10 лет мы можем увидеть несколько научных работ на эту тему. К ним относятся: статья «Особенности контроля финансовой отчетности в бюджетных организациях» независимого

исследователя Артикова Курбоназара Амановича (Ташкентский финансовый институт); Ферганский политехнический институт, кафедра «Учет и аудит», доцент Каюмов Нозимжон Адхамджон сын, магистр специальности «Бухгалтерский учет» Каюмов Шахрух Адхамджон, статья «Вопросы перемещения товарно-материальных ценностей на предприятиях розничной торговли»; Статья «Совершенствование учета материальных ценностей в высших учебных заведениях» Синдарова Шерзода Эгамбердиевича, проректора по финансово-экономической работе Ташкентского финансового института; Статья «Этапы достижения международных стандартов» Нурниезова Феруза Абдурашида, доцента кафедры «Бухгалтерский учет» Самаркандского института экономики и сервиса; Статья «Совершенствование складского учета предприятий» Ёлдошева Сухроба Рустама, магистранта кафедры «Бухгалтерский учет» Термизского государственного университета, и Нурманова Улугбека Анорбаевича, доцента Ташкентского финансового института «Источники товарно-материальных запасов в хозяйственных субъектах и В качестве примера можно взять такие статьи, как практика формирования.

**Главный вывод.** Если сделать небольшой вывод на основании аннотации нашей научной работы на тему «Совершенствование учета и аудита товарно-материальных запасов», то в современную бурно развивающуюся эпоху весь учет и отчетность, аудит и контроль субъектов хозяйствования должны осуществляться в соответствии с международные стандарты. Существует проблема передачи. В том числе ведение товарного запаса должно соответствовать требованиям международных стандартов.

**Ключевые слова:** Бизнес-менеджер, предприятие, инвентаризация, учет, затраты, отчетность, аудит, инвентаризация, международные стандарты.

### KIRISH

#### **Tadqiqot obyektini belgilab olish.**

“Tovar-moddiy zaxiralari hisobi va auditi” mavzusidagi ilmiy ishning obyektini, asosan, tovar-moddiy zaxiralari hisobi va auditi sohasidagi jarayonlarga yo‘naltirilgan. Bu ilmiy ishda obyekt sifatida tovarlar, moddalar yoki moddiy resurslar hisob-kitob va audit jarayonlariga tushuntirilgan.

Ilmiy tadqiqot obyektini sifatida tanlangan mavzuga oid ishlar, odatda, moliyaviy hisob-kitob va audit prinsiplarini o‘rganish, hisob-kitob va auditning muhim nuqtalari va muammosini tahlil qilishni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, tashqi va tashqiriy auditda qo‘llaniladigan xizmat ko‘rsatish prinsiplari va tovar-moddiy zaxiralari hisobi sohasidagi yangiliklarni tushuntirish ham muhimdir.

Ilmiy ish obyektini belgilashda avvalgi tadqiqotlar, muammolar, va muhim tahlillar yoki so‘rovnomalar, masalan, hisob-kitob va audit sohasidagi tajribalar muhim rol o‘ynaydi. Ushbu ilmiy ish obyektini, tovar-moddiy zaxiralari hisobi va audit sohasidagi ilmiy yondashuvni rivojlantirishga yo‘l qo‘ymoqda muhim ahamiyatga ega bo‘ladi.



Ilmiy tadqiqot ishining obyekti, MChJ “Uz Chasys” Qo‘shma korxonasining tovar-moddiy zaxiralarining chiqib ketish hisobi va auditorlik tekshiruv ma’lumotlari.

Ilmiy tadqiqot ishining predmeti bo‘lib, tovar-moddiy zaxiralar hisobi, auditi va ularning o‘ziga xos xususiyatlarining huquqiy-me‘yoriy asoslari, shuningdek, uning uslublarini amaldagi qonunlar va me‘yoriy hujjatlar doirasida takomillashtirish hisoblanadi.

**Muammoning markazga qo‘yilishi.** Mulkdorlar, tadbirkorlar, sohibkorlar, tijoratchilar, aksionerlar, bankirlar, birja egalari va xodimlari, menejerlar, brokerlar va boshqa bozor iqtisodiyoti amaliyotchilaridan iborat yangi ijtimoiy guruh va qatlamlar shakllanmoqda. Lekin shu narsa ma’lum bo‘lib turibdiki, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda bugungi kunda o‘z yechimini topmagan muammolar, hal qilinishi lozim bo‘lgan vazifalar ham mavjud. Ko‘pgina korxonalarining zarar ko‘rib ishlayotganligi, ularning moliyaviy ahvoli qiyinlashib, bankrotga uchravotganligi, kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning, mulkdorlar sinfining sekin shakllanayotganligi, iqtisodiyotda ular ulushining kamligi, qishloqda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, fermer xo‘jaliklarini rivojlantirish qiyinchiliklari, tovar, xizmat va kapital eksportining sekin o‘sayotganligi va boshqalar shular jumlasidandir. Agar oldimizda «Milliy boylikning ko‘payishini, respublikaning mustaqilligini, odamlarning munosib turmush va ish sharoitlarini ta‘minlaydigan qudratli, barqaror va jo‘shqin rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etish» kabi buyuk vazifa turganligini, bunday iqtisodiyot —Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, strategik maqsadimiz bo‘lgan huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni barpo qilishning asosiy ekanligini e‘tiborga olsak, iqtisodiy muammolarimiz naqadar ko‘pligi va murakkabligi yanada ayon bo‘ladi.

**Tadqiqotni borish jarayoni.** Dunyodagi hech bir mamlakat iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va uyg‘unlashtirishning bir mexanizmidan butunlay boshqasiga birdaniga o‘tgan emas. Bu uzoq davrni talab qiladigan jarayon bo‘lib, alohida o‘tish davrini taqozo etadi. Uning hamma uchun bir xil, o‘lchami va nusxalari ham yo‘q. Shunday ekan, bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrini va umuman hozirgi zamon xo‘jalik tizimini faqat G‘arbda mavjud bo‘lgan, ko‘plari eskirib ketgan va munozarali, bizning real iqtisodiy hayotimizdan ancha uzoq nazariyalar bilan izohlab, iqtisodiyotning rivojlanish yo‘lini yoritib bo‘lmaydi. Shuningdek, bizning iqtisodiy tafakkur tariximizda uzoq vaqt hukmron bo‘lgan, iqtisodiy hodisalarni asosan sinfiy nuqtai nazaridan va sinfiy kurash jihatlaridan olib qaragan, iqtisodiy taraqqivotning umuminsoniv tomonlarini keyingi o‘ringa surgan eski marksistik yo‘nalishdagi aqida va qoidalarga asoslanib ham bozor xo‘jaligi va hozirgi zamon iqtisodiyotidagi bir qator hodisalarni tushuntirib bo‘lmaydi.

#### ADABIYOTLAR SHARHI

Pul. tovar-moddiy va boshqa boyliklarni qabul qilish va herish uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan hujjatlar, korxon. muassasa va tashkilotmnt; kredit va

hisob-kitob majburiyatlari. shuningdek. buxgalteriya hisobotlari va balanslari rahbar tomonidan yoki u belgilaydigan shaxslar tomonidan imzolaniadi.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun.

Bosh hisobchining pul mablag‘lari, tovar-moddiy va boshqa qiymatliklarni qabul qilish, saqlash va sarflash bo‘yicha qonunchilikka zid bo‘lgan operatsiyalar bilan bog‘liq hujjatlarni ijroga qabul qilishi hamda rasmiylashtirishi ta‘qiqlanadi. Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini huzgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tariibda javobgar bo‘ladilar.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun, 24-modda.

«Joriy aktivlar» qismida Tovar-moddiy zaxiralar yig‘indisi kelgusida qilinadigan xarajatlar, kechiktirilgan xarajatlarning, joriy qismi debitor qarzdorlik, pul mablag‘lari, qisqa muddatli moliyaviy jamg‘armalar va boshqa joriy aktivlar ochilishi lozim. Tovar-moddiy zaxiralarga quyidagilar kiradi va ular alohida ta‘riflanishi kerak: a) ishlab chiqarish zaxiralari; b) tugallanmagan ishlab chiqarish; d) tayyor mahsulot; e) tovarlar. (S. Mexmonov, 2013)

Moliyaviy hisobotlarni ishlab chiqarish tannaxrlarga mansub xarajatlarni anglatadi va «Tovar-moddiy zaxiralar» asosini tashkil etadi.

Tovar-moddiy zaxiralar uchun muhim hisob muammosi aniqlashdir: ushbu hisob-kitob davrida TMZning qaysi qismi xarajat qilingani foyda va zararlar hisobotida aks etishi kerak, qaysi qismidan foydalanilmagani buxgalteriya balansida aks ettirilishi kerak. Shu bilan birga foydani aniqlash masalasi mos keluvchi chiqimlarni foydalar bilan solishtirish yo‘li bilan yechiladi.

Sotilgan moddiy zaxiralar tannarxi o‘lchami hisobot yili oxiridan TMZ bilan sotishga tayyorlangan TMZ tannarxi o‘rtasidagi farq bilan aniqlanadi. Shuning uchun yakuniy natijalar tannarxi qanchalik baland bo‘lsa realizatsiya qilingan TMZ lar tannarxi shunchalik past bo‘ladi, yalpi daromad ham past bo‘ladi. Tovar-moddiy zaxiralar eng kichik ikkita o‘lchov bo‘yicha baholanishi zarur: tannarxlar va sotishda imkoni bo‘lgan sof baho.

Hisobot davri ichida TMZ uchun narxlar almashadi. Bir xil va miqdordagi tovarlarni har xil narxlarda sotib olish mumkin. Ko‘pincha bir tovarni aniqlamoqchi yoki realizatsiya qilinmoqchi bo‘lganda aniq TMZ ning qaysi qismi sotilib, qaysinisi zaxira sifatida aniqlab bo‘lmaydi. Shuning uchun uni realizatsiya qilinish tartibiga qarab aniqlash zarur. (S. Yuldasheva va b., 2022)

Tovar-moddiy zaxiralarini auditorlik tekshiruvidan o‘tkazishning maqsadularning saqlanishi, tejamli [va oqilona ishlatilishi](#), hisobga olishning to‘g‘ri tashkil etilishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, hisobot ko‘rsatkichlarining ishonchligini va tovar-moddiy zaxiralar bilan bog‘liq muomalalar hisobi va soliqqa tortish uslubining O‘zbekiston Respublikasida amal qilayotgan qonunchilik hamda me‘yoriy hujjatlarga muvofiqligini aniqlash lozim. Ushbu maqsadga muomalalar mohiyatini, hamda nazorat tuzulmasi va buxgalteriya hisobi tizimini tekshiruvdan o‘tkazish va risklarni baholash orqali erishiladi. Zaxiralarni tekshirish, ular hajmi katta bo‘lgan korxonalarda auditning asosiy qismi deb qaraladi.

## METODOLOGIYA

Ilmiy ishimizda ma'lumotlarni to'plash jarayoni muhim o'rin tutadi. Albatta ishimizdan ko'zlangan natijaga erishishimiz uchun va bu natija samara ko'rsatishi uchun mavzuyimiz doirasida aniq hamda yetarlicha ma'lumotlar to'plashimiz shart. Ma'lumotlarni biz turli xil manbalardan to'playmiz. Bunda bizga MChJ "Uz Chasys" Qo'shma korxonasi boshqaruvi hamda ularning moliyaviy instrumentlari bo'yicha yurtimiz va xorij olimlari hamda tadqiqotchilari tomonidan yozilgan ilmiy manbalarning bosma nashrlari, agar bosma nashrlari topilmagan holda elektron shaklidagi nusxalari yordam beradi. O'z navbatida MChJ "Uz Chasys" Qo'shma korxonasi rasmiiy saytidagi ma'lumotlardan foydalanamiz, saytdagi ma'lumotlar yetarli bo'lmaganda amaliyot o'tash joyidagi rahbarimizga murojaat qilish orqali, mavzuyimizning amaliy jihatdan kengroq yoritilishiga harakat qilamiz.

Qo'shimcha statistik ma'lumotlar uchun MChJ "Uz Chasys" Qo'shma korxonasi tovar-moddiy zaxiralari chiqib ketish hisobi va auditorlik tekshiruv ma'lumotlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Iqtisodiyot vazirligi va Statistika qo'mitasi ma'lumotlari, maxsus adabiyotlar hamda statistik manbalardan foydalanildi.

## TADQIQOT NATIJASI

Xo'jalik yurituvchi tashkilotlarda tovar-moddiy zaxiralar chiqib ketish hisobi va auditini tashkil qilish, tovar-moddiy zaxiralarning harakatini hujjatlashtirishning nazariy-amaliy hamda tashkiliy tamoyillarini yaratishdan iboratdir. Ushbu maqsadga muvofiq asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

– tovar-moddiy zaxiralarning iqtisodiy mazmuni, mohiyati va ularni turkumlash hamda baholashning nazariy asoslarini o'rganish;

– xo'jalik yurituvchi sub'etlar faoliyatida tovar-moddiy zaxiralar hisobining uslubiy asoslarini tahlil qilish;

– xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda tovar-moddiy zaxiralar chiqib ketish hisobini tashkil qilishning hozirgi holatni o'rganish va mavjud bo'lgan muammolarning yechimini o'rganish;

– materiallarning chiqib ketishini buxgalteriya hisobida yuritishning o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish tartibini o'rganish;

– sotib olingan tovar-moddiy zaxiralarni samarali sarflanishi jarayonini nazorat qilish tartibini o'rganish; tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini tashkil etishda xalqaro tajribalaridan foydalanishdan iboratdir.

Tovar moddiy zaxiralari korxonaning aylanma mablag'larida faoliyat sohasiga qarab, 30 foizdan 90 foizgacha bo'ladi. Korxonaning moliyaviy va iqtisodiy ahvoli ko'p jihatdan ana shu tovar moddiy zaxiralardan foydalanish samaradorligiga bog'liq. Har bir ishlab chiqarish korxonasi mahsulot ishlab chiqarish jarayonining to'xtovsiz davom etib turishida tovar moddiy zaxiralarning o'rni juda kattadir. Tovar moddiy zaxiralari asosiy vositalardan farq qilib, bir ishlab chiqarish jarayonida o'zining qiymatini to'la ravishda mahsulot tannaxtiga o'tkazadi.

Shunday ekan aylanma mablag'lar harakatchanligi bevosita tovar moddiy zaxiralaridan samarali foydalanishga bog'liq. Aylanma mablag'larning korxonalar uchun umumiy miqdori yuqori tashkilotlar, ya'ni tegishli vazirlik tomonidan belgilanadi.

### MUHOKAMALAR

Ishlab chiqarilayotgan mahsulotning asosini asosiy TMZlar tashkil qiladi. Masalan, mashinasozlikda – metall, mebel ishlab chiqarishda yog'och, gazlama ishlab chiqarishda – paxta va boshqalar. Qazib chiqaruvchi sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari xom ashyo deb ataladi. Masalan, neft, ruda, paxta, qand lavlagi va boshqalar. Boshqa korxonalaridan olinadigan mashina va agregatlarning to'g'ri detallari va boshqalar yarim tayyor mahsulotlar deb ataladi.

Materiallarni sotib olish xarajatlari sotib olish qiymatini, import bojlari va yig'imlarini, tovarni sertifikatlash qilish xarajatlarini, ta'minot, vositachi tashkilotlarga to'langan komission to'lovlarni, Soliqlarni, xizmat va zaxiralarni sotib olish bilan bevosita bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlarni o'z ichiga oladi. Tovar-moddiy zaxiralarning xususiyatlari quyidagilarda nomoyon bo'ladi:

- materiallarning mahsulot tarkibidagi ulushiga qarab;
- materiallar ishlab chiqarish jarayonida o'rniga qarab;
- ishlab chiqarishning uzluksiz vositasi sifatida taminlash;
- ombordagi va ombordan chiqib ketayotgan-materiallarning ombordagi hisobiga qarab;
- hujjatlarning rasmiylashtirilishi bo'yicha;
- mahsulot tan narxida aks etishiga qarab;
- materiallarning inventarizatsiyasi bo'yicha;
- hujjatlarda aks etishiga qarab;

Tovar moddiy zaxiralar korxonalar buxgalteriya balansiga sotib olingan va sotish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarda barcha xarajatlarni o'z ichiga olgan tannarx bo'yicha olinishi kerak. Tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlarga quyidagilar kiradi:

- Bojxonalar bojlari va yig'implari;
- Tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan soliqlar va yig'implar summasi
- Vositachilarga to'lanadigan vosita haqi;
- Tovar moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq bo'lgan sertifikatlash xarajatlari;
- Transport xarajatlari;
- Tovar-moddiy zaxiralarni sug'urta qilish xarajatlari;
- Tovar-moddiy zaxiralarni yuklash xarajatlari;
- Tovar-moddiy zaxiralarni sotib olish bilan bog'liq boshqa xarajatlar;

Materiallarni qabul qilish, xo'jalik yurituvchi sub'ekt ichida joylashtirilishi va ombordan berilishi muomalalarini rasmiylashtirish uchun bir xillashtirilgan idoralararo dastlabki hujjatlar ko'zda tutiladi. "Keladigan yuklarni ro'yxatga olish



jurnali” M-1 haqli yuklarni temir yo‘llar, suv pristanlari, transport ekspeditsiyasi idoralaridan olish va ularni xo‘jalik yurituvchi subyekt omboriga kirim qilish bilan bog‘liq transport, tovarga oid va boshqa hujjatlarni ro‘yxatdan o‘tkazish uchun qo‘llaniladi. (Yo‘ldoshev, 2022)

Albatta har bir sotib olingan narsa, hoh u kichik bo‘lsin yoki katta, uni hujjatlarda rasmiylashtirib, buxgalteriya balansiga kirim qilinadi. Xuddi shunday uni hisobdan chiqarilishi ham rasmiylashtiriladi. Bu jarayonlarni hisobi “Keladigan yuklarni ro‘yxatga olish jurnali” M-1 da yuritiladi.

Yuk xati – buyurtmachiga ishlab chiqaruvchilar tomonidan yetkazib berilgan mahsulot yoki tovarlarning tasdiqlangan ro‘yxatidir. Unda mahsulot yoki tovarning nomi, o‘lchiv birligi, bir-birlik mahsulotning narxi va umumiy summasi ko‘rsatilgan bo‘ladi.

Tadqiqot obyektini ma‘lum darajada olib borilganligi sababli tovar-moddiy zaxiralarini yaroqsiz holga kelishi, foydalanilmay turgan moddiy texnika vositalari va ularni qanday qilib hisobdan chiqarish kabi jarayonlar yoritib o‘tilmadi. Ushbu chegaralab qolingani tadqiqot jarayonlari hamda ular ustidan o‘tkaziladigan audit jarayoni haqidagi ma‘lumotlarni keyingi olib boriladigan ilmiy-tadqiqot ishida yoritib berilishi tavsiya qilinadi.

## XULOSA

Iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida xo‘jalik faoliyati jarayonining yakuniy bosqichidan olinadigan tayyor maxsulotlarning tannarxidagi sarflangan xom-ashyo va materiallarning ulushini imkoniyati boricha kamaytirish muxim o‘rin tutadi, chunki, talab va taklifdan kelib chiqqan xolda ularga o‘rnatilgan baxo (chunki, ushbu baxolarni tartibga solib turuvchi omil – bu tannarxdir) maxsulotlarning xaridorgirlik darajasini belgilaydi.

Tovar-moddiy zaxiralar hisobida boshqaruv va moliyaviy hisob obyektlarini aniq belgilab olinishi va uni tadqiq etish natijasida shunday xulosaga kelish mumkinki, ushbu masala yuzasidan aniq chegaralanish haligacha belgilanmagan. (Yo‘ldoshev, 2022)

Xo‘jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar ta‘minoti bilan bog‘liq muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

materiallarni xarid qilish bilan shug‘ullanadigan xo‘jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining mol yetkazib beruvchilar haqida yetarli ma‘lumotga ega emasligi;

mol yetkazib beruvchilarni tanlashning rasmiylashtirilgan tartibining mavjud emasligi;

ishlab chiqarish jarayonida kutilmagan vaziyatlar (smenalar ishidagi farq, kutish, kechiqish, texnologik turib qolishlar);

keng ko‘lamli mahsulotlarni ishlab chiqarish;

ishlab chiqarishni reja bo‘yicha to‘xtatib turish (stanoklar buzilishi, detallarni almashtirish va qayta sozlash) va hakoza. (Nurmanov va b., 2023)

Tovar-moddiy zaxiralari har bir korxonalar va tashkilotlar uchun eng muhim resurs deb hisoblayman hamda ularning hisobini yuritish ham muhim deb o'ylayman. Chunki, ularni kirim-chiqimi, yaroqsiz holga kelishi yoki kamomadi hamda hisobdan chiqarilishi kabi jarayonlarni amalga oshirib, hujjatlashtirish orqali, korxonalar faoliyatini izdan chiqib ketmasligi, kerakli tovar-moddiy zaxiralarga bo'lgan ehtiyojni aniqlab, resurs bilan ta'minlashga erishiladi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 'Budjet tashkilotlarida bug`galteriya hisobi Kitob.pdf' (no date).
2. 'Buxgalteriya hisobi asoslari (S.Yuldasheva, I.Masteyeva, B.Maxkamov) Kitob .pdf' (no date).
3. 'korxonalar-tovar-moddiy-zaxiralari-hisobini-takomillashtirish.pdf' (no date).
4. 'PDF\_Nurmanov+Ulugbek+Anorbayevich\_Jurnal-11-12-2023.pdf' (no date).